

TA`LIM MUASSASALARIDA MATEMATIKA O`QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN UNUMLI FOYDALANISH

*Madaminova Dilnoza Lutfiddinovna
Andijon davlat texnika instituti akademik
litseyi matematika fani o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limda matematika fanini o'qitish, uning o'rghanish obyekti, o'qitishning xususiyatlari, o'qitish umumiy metodikasining qonun va qoidalarining aniq mavzu materiallariga tadbiq qilish yo'llari, o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o'rghanishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalash va matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklari xususida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: ta`lim tarbiya, tadqiqot, metodika, matematik tenglama, plastinka diametri.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda bo`layotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ta'lim-tarbiya sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar “Milliy dastur”imizda belgilab berilgan buyuk maqsadlar hozirgi kun o'qituvchisini yanada ko`proq mehnat qilishga, izlanishga da'vat etmoqda. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lамини hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim. Bunda uzlusiz ta'lim tizimi xodimlari, pedagog-o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi.O'qituvchilarning matematika fanlarini o'qitishda yo'naltirilgan darslar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilonan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta,

chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi. Ta'lim jarayoni o'quv materiali mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Ta'lim mazmunida, shuningdek, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, ko'nikma hamda malakalarning hajmi ham o'z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta'lim mazmunining g'oyaviy jihatdan mukammalligi o'quvchilar tomonidan muayan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Matematika darslarida bir xillikdan qochish ya'ni darslarning noan'anaviy shakllarda tashkil etilishi, ta'lim jarayonini mukammal andozalar asosida loyihalash, bu loyihalardan unumli foydalana olish o'quvchilar tomonidan o'tilgan darslarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi. Zamonaviy ta'limga qo'yilayotgan asosiy muhim talablardan biri ham ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamasdan, qisqa vaqt ichida ulkan natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtaida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Interfaol metodlar deganda- ta'lim oluvchini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro babs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilarning tashabbuskorligi hamda jamoaviy izlanuvchanligini oshiriladi. Interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkil etilsa, o'quvchi darsga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi va ta'lim sifati

yaxshilanadi. Interfaol usullar orqali o'tilgan darslar o'quvchini ijobiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma bayon etishga chorlaydi. Interfaol metodlar orqali o'tiladigan darslarda an'anaviy usullardan voz kechish degani emas, balki mazmunni o'zaro faollikda hal eta olishdir. Interfaollik bu faollikdir, ya'ni o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro muloqoti asosida kechadi. Albatta, har bir ishning maqsadi bo'lgani kabi interfaol usullarni qo'llashdan maqsad bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchilarning faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratishdir. U o'zining intelektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etibgina qolmay, balki o'quv sifatini va samaradorligini oshiradi, ta'minlaydi. Matematika darslarida interfaol metodlar orqali tashkillashtirilsa, dars ham qiziqarli, ham mazmunli o'tishi mumkin. Chunki, biz bilamizki, boshlang'ich sinf o'quvchilar juda o'yinqaro bo'lishadi. Shuning uchun ham darslarni rang barang metodlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Misol uchun "Ko'paytirish jadvali"ni tushunishida o'quvchi qiynaladi. Agar bu mavzularni tushuntirishda interfaol metodlar orqali tushuntirilsa, o'quvchining xotirasiga ham qolishi osonroq bo'ladi. Hozirgi yuksalish va yangilanish davrida yashar ekanmiz biz o'qituvchilar interfaol metodlar asosida dars jarayonalarini tashkil qilamiz. Oddiygina o'qitish metodini olsak, bu tushuncha didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Didaktika va metodikaga oid hozirgi zamon ishlarining ko'pchiligidagi o'qitish metodlari o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari usullari, bo'lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malaka va ko'nikmalarga erishiladi, o'quvchilarning dunyoqarashlari shakllanadi, ularning qobiliyatlari rivojlanadi. Darsda o'quvchilar faolligini oshiruvchi vositalardan biri-interfaol metodlardir. Bu uslublar maktab pedagogikasi uchun yangilik emas. Ulardan ilgari ham foydalanib kelingan. Qachonki, bu metodlar samarali natija bera oladi:

- Dars va mavzuning maqsadlari to'g'ri aniq tanlanganda;
- Mavzuga mos metodlarni tanlay olinsa;
- Bir metod butun dars davomida qamrab olmasdan, balki kichik daqiqalarni qamrab olsa;

-Tanlagan metod o'quvchilarga yangi bir axborotlarni yetkazib bersa, o'quvchi mavzuni nima haqidaligini tezgina tushuna oladi. Biz dars jarayonida metodlarni qo'laymiz dedik, bu bilan o'quvchilarning dars materiallarini o'zlashtirish darajasini ancha yuqori bo'ladi. Biz dars jarayonida bolalarni yoshiga va bilim darajasiga qarab, interfaol metodlardan foydalanib dars o'tamiz.

XULOSA

So'ngi yillarda pedagogika faoliyatda turli axborot vositalari (kopyuter, televideniya, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'qituvchilar oldida ta'limgarayonida turli axborot vositalardan o'rinali va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Biz o'qituvchilar darslarni turli xil innovatsion metodlar orqali tushuntirib, yoritib bolalarga yetkazib berishga harakat qilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Do'smurodova, G. X. (2020). Development of mathematics of students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(2), 202-206.
2. Махмудова, Д. М., Дусмуродова, Г. X. (2019). Трахтенберг методикасига асосланиб сонларда купайтириш амаллари. Fizika, Matematika va Informatika, 5, 103-110.
3. Дусмуродова, Г. X. (2019). Математикадан иктидорни шаклланишида тескор хисоблаш усулларининг ахамияти. Fizika, Matematika va Informatika, 56, 21-25.
4. Наримбетова, З. А., Сытина, Н. (2021). Учитель-нравственный пример для ученика. Academic research in educational sciences, 2(1), 1153-1159.
5. Eshkaraev, K., Norimbetova, Z. (2020). Methodological recommendations for organizing and holding mathematical circles. European Scientific Conference, 248-250.
6. Norimbetova, Z. A. (2020). Axborot kommunikatsion texnologiyalari yordamida geometriya fanini o'qitish metodikasi (10-11-sinflar misolida).
7. Narimbetova, Z. A. (2020). Matematika fanida ta'limgarayonida texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilar tafakkurining rivojlantiruvchi omil. Academic research in educational sciences, 1(3), 1253-1261.